

## INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH JARAYONI MODEL, AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI.

*Jamilova Guluruxxon Akobirovna*

*Buxoro viloyat Romitan tuman 1-son Kasb hunar maktabi*

*Informatika va axborot texnologiyalar fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda pedagogik adabiyotlar va amaliyotda “loyihalash” atamasi ko'p qo'llanilmoqda. U muayyan darslar, alohida mavzular, yaxlit o'quv fanlari, o'quv mashg'ulotlari yoki fanlar komplekslarini ishlab chiqish bilan bog'lanadi va texnologiyalashgan pedagogik ob'ektlar, jumladan, pedagogik jarayonlarni yaratishga ko'maklashadi. Loyihalashtirilgan pedagogik jarayonlar asosida shaxsning kasbiy sifatlarini shakllantirish qonuniyatlariga asoslangan ijobiy natijaga bosqichma-bosqich olib keladigan g'oyalar yotadi.

**Kalit so'zlar:** an'anaviy ta'lim texnologiyalari, axborot kompetentsiyasi, intellektual qobiliyatlar, tanqidiy fikrlash, rebus, krossvordlar.

## МОДЕЛЬ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ ИНФОРМАТИКЕ И ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА, МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ

**Аннотация:** Сегодня термин «дизайн» широко используется в педагогической литературе и практике. Оно связано с разработкой конкретных уроков, отдельных предметов, интегрированных учебных предметов, учебной деятельности или комплексов предметов и способствует созданию технологических педагогических объектов, в том числе педагогических процессов. В основе спроектированных педагогических процессов возникают идеи, которые постепенно приводят к положительному результату, основанному на закономерностях формирования профессиональных качеств личности.

**Ключевые слова:** традиционные образовательные технологии, информационная компетентность, интеллектуальные способности, критическое мышление, ребусы, кроссворды.

## MODEL OF THE TEACHING PROCESS OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES BASED ON THE INNOVATION APPROACH, IMPLEMENTATION MECHANISMS

**Abstract:** Today, the term "design" is widely used in pedagogical literature and practice. It is connected with the development of specific lessons, individual subjects, integrated academic subjects, educational activities or complexes of subjects and helps to create technological pedagogical objects, including pedagogical processes. Based on the designed pedagogical processes, there are ideas that gradually lead to a positive result based on the laws of formation of professional qualities of a person..

**Keywords:** traditional educational technologies, information competence, intellectual abilities, critical thinking, puzzles, crossword puzzles.

**Kirish.** Bugungi kunda muammoli o'qitish, aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish, ta'lim berishning kompyuter texnologiyasi, modul ta'lim texnologiyasi, kabilar keng qo'llanilmoqda va

ular pedagogik jarayonni loyihalashga asos bo'ladi.

Pedagogik loyihalash pedagog va o'quvchilarning samarali faoliyatini ishlab chiqish bilan bog'liq. Puxta, savodli loyihalashtirilgan pedagogik jarayonlar, texnologiyalar va boshqa ob'ektlar vositasida pedagog o'quvchi shaxsini va o'z-o'zini rivojlantirishga erishadi, turli salbiy omillar ta'sirini kamaytiradi. Shu bilan pedagog o'quvchining individual rivojlanishining o'ziga xos loyihasini yaratadi. Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish samaradorligini oshirishda nazariya yetakchi o'rinni egallamoqda.

Dars rasmiy ta'lim-tarbiya sohasining birlamchi asosi, uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil qiluvchi g'ishti, o'qituvchi va pedagoglarning faoliyat ko'rsatish joyi hisoblanib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. O'quvchi yoki talabalar.
2. O'qituvchi yoki pedagog.
3. O'qitishning texnik vositalari.
4. Darsda kerak bo'ladigan me'yoriy hujjatlar (dastur, o'quv rejasi, taqvimiy reja, darslik, metodik qo'llanmalar, dars ishlanmasi).
5. Usul va uslublar.

Dars mezonlarini aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

Ta'lim maqsadi, undan kutilayotgan natijalar, ta'lim beruvchi va oluvchilar, ta'lim mazmuni, metodi, shakli, vositalar, nazorat va baholash.

**Ta'lim jarayoni** – ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi ma'lum maqsadlar asosida belgilangan bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan jarayon hisoblanib, uning maqsadi ta'lim-tarbiya natijasi sifatida o'quvchi erishishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarini belgilaydi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda dars jarayonining oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishlarini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi doimiy rag'batlantirilib turilishi, o'quv mavzusini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda "Bahs-munozara", "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Rolli o'yin" metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqitiruvchi misollar keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, har xil baholash usullari va ta'lim vositalaridan joyida va o'z vaqtida foydalanish talab etiladi.

No'an'anaviy darsni o'tish jarayonida asosiy e'tibor o'quvchi shaxsiga qaratiladi va bu real hayotda hamda jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini sinfxonada yaratish va ularda o'quvchilarning shaxsan qatnashishi va faoliyati evaziga ta'lim olishini ko'zda tutuvchi metod hisoblanadi.

Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullarni qo'llash juda muhim. O'qituvchi darsning eng boshida 4-5 daqiqa umumiy so'rashini amalga oshiradi va o'quvchilarning qaysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keyingi so'rashda sinfning diqqat-e'tiborini eng avval ana shu masalaga qaratadi.

Dastlab, savollarga batafsil javob bera oladigan talabalardan so'raydi. Natijada sinfning bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo'ladi. Bu usul o'quvchilarning mashg'ulotlardagi nuqsonlarini payqash va shu zahoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham ayni shunda. Garchi har bir pedagogning ishida anchagina usul va uslublar mavjud bo'lsada, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limiy ishlarini faollashtirishdan iborat. O'qituvchining vazifasi samarali usullardan foydalanib, o'quvchilarda faollik sifatlarini tarkib toptirish va qiyinchiliklarni engishga o'rgatishdir. Bu juda muhim bo'lib, o'quvchilarda o'qitilayotgan fanga bo'lgan, undan esa amaliy faoliyatga aylantiradi va o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi.

O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llanadi. O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va

ko'nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi. O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. Didaktik tamoyillarni hisobga olgan holda, talabalarga nafaqat faktlarning qat'iy ilmiy bayonini berish, balki o'qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo'llash lozim. Masalan, ko'pchilikka ma'lum va ommabob bo'lgan krossvord o'yini talabalarda qiziqish o'yg'otishi tabiiydir. Qomusiy lug'atda ta'riflanishicha, uning atamasi inglizcha "kross" – kesishgan, "vord" – so'z degan ma'noni anglatib, ilk bor XX asr boshlarida kashf etilgan. Vaqt o'tishi bilan uning turlari ko'payib, chaynvord, chaynkrossvord, krosschaynvord, aylanma krossvord, diagonal krossvordlar o'ylab topildi. Ularning har biri shaklda so'zlarning joylashishi va bog'lanishi bilan farq qiladi. Krossvord ko'rinishidagi so'rov shakli talabalar uchun har doim qiziqarli va o'ziga tortadigan metoddir.

**Xulosa.** Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullarni qo'llash juda muhim. O'qituvchi darsning eng boshida 4-5 daqiqa umumiy so'rashini amalga oshiradi va o'quvchilarning qaysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keyingi so'rashda sinfning diqqat-e'tiborini eng avval ana shu masalaga qaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) To'raqulovich, M. O. (2024). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH. PEDAGOG, 7(6), 63-74.3 2)
- 2) Muradov, O. (2024, January). IN TEACHING INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES REQUIREMENTS. In Международная конференция академических наук (Vol. 3, No. 1, pp. 97-102).
- 3) Murodov, O. T. R. (2023). INFORMATIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH. GOLDEN BRAIN, 1(32), 194-201.
- 4) To'raqulovich, M. O. (2024). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIMNING INNOVATION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. PEDAGOG, 7(5), 627-635.
- 5) To'raqulovich, M. O. (2024). IMPROVING THE TEACHING PROCESS OF IT AND INFORMATION TECHNOLOGIES BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 851-859.
- 6) Murodov, O. (2024). DEVELOPMENT AND INSTALLATION OF AN AUTOMATIC TEMPERATURE CONTROL SYSTEM IN ROOMS. Solution of social problems in management and economy, 3(2), 91-94.
- 7) Murodov, O. (2024). DEVELOPMENT OF AN AUTOMATED SYSTEM FOR CONTROLLING TEMPERATURE AND HUMIDITY IN PRODUCTION ROOMS. Development and innovations in science, 3(1), 84-93.
- 8) Murodov, O. (2024). TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI. Science and innovation in the education system, 3(3), 155-160.
- 9) Murodov, O. (2023). INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(4), 77-81.
- 10) Muradov, O. (2024). APPLIED TO THE CURRENT TRAINING PROCESS REQUIREMENTS. Инновационные исследования в науке, 3(1), 54-63.

- 11) Murodov, O. (2024). DEVELOPMENT OF AN AUTOMATED PARAMETER CONTROL SYSTEM ROOMS AND WORKSHOPS BASED ON CLOUD TECHNOLOGIES. Академические исследования в современной науке, 3(2), 16-27.
- 12) Muradov, O. (2024, January). Application of basic principles and rules of innovative pedagogical technologies to educational processes. In Международная конференция академических наук (Vol. 3, No. 1, pp. 46-55).
- 13) Muradov, O. (2024). Basic principles and rules of innovative pedagogical technologies in the educational process. Models and methods in modern science, 3(1), 84-93.